QO‘QON – O‘RTA OSIYODAGI QOG‘OZ SIVILIZATSIYASINING YIRIK MARKAZLARIDAN BIRI SIFATIDA

Begmatov Xurshid Isanaliyevich
Qo‘qon davlat universiteti assistant o‘qituvchisi
begmatovxurshidbek508@gmail.com
ORCID: 0009-0003-1227-9678

Annotatsiya. Maqolada Qo‘qon xonligi davrida shakllangan qog‘ozgarlik hunarmandchiligi Samarqand qog‘ozchiligi an’analari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan Qo‘qon qog‘ozgarligi xonlikning ichki bozoriga xizmat qilgan, ammo an’anaviy objuvoz texnologiyasini XX asr 40-yillarigacha saqlab qolgan noyob markaz sifatida e’tirof etiladi. Tadqiqotda tarmoqning tashkil topishi, texnologik xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va rus sanoat mahsulotlari ta’sirida tanazzulga yuz tutishi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, qog‘ozgarlik, objuvoz, Samarqand qog‘ozi, hunarmandchilik, Buyuk ipak yo‘li, Marg‘ilon, Chorku, Qog‘ozgar.

Kirish. O‘rta asrlarda Movarounnahr hududida shakllangan qog‘oz ishlab chiqarish an’anasi yevroosiyo sivilizatsiyasi tarixida fundamental ahamiyatga ega bo‘lgan. I. J. Yuldashevning tadqiqotida ko‘rsatilganidek, Samarqand qog‘ozi o‘z sifati bilan papirus va pergamentni siqib chiqargan va bir necha asr davomida dunyo bozorida yuksak talabga sazovor bo‘lgan [1, b. 93–95]. Biroq bu an’ana faqat Samarqand bilan cheklanib qolmagan: tarixiy manbalarda Buxoro va Qo‘qon ham qog‘oz ishlab chiqaruvchi muhim markazlar sifatida tilga olinadi [1, b. 96]. Qo‘qon xonligi (1709–1876) davrida shahar va uning atrofidagi qishloqlarda qog‘ozgarlik mustaqil va barqaror hunarmandchilik tarmog‘i sifatida faoliyat yuritgan. Xonlik manbalarida Qo‘qon shahri aynan zargarlik va qog‘oz ishlab chiqarish bilan mustahkam nom qozongan shaharlardan biri sifatida tilga olinadi [6]. Shunga qaramay, mavzu hanuzgacha mustaqil tadqiqot ob’ekti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan – u, odatda, Samarqand qog‘ozchiligi tarixining «soyasi»da qolib ketgan.

Maqolaning maqsadi – mavjud tarixiy-etnografik manbalar asosida Qo‘qon qog‘ozgarligining shakllanish bosqichlari, texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini aniqlash, shuningdek uni yevroosiyo qog‘oz sivilizatsiyasi tizimidagi o‘rnini belgilashdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo‘yildi: 1) Qo‘qon xonligida qog‘ozgarlik tarmog‘ining tashkiliy tuzilishini yoritish; 2) texnologik jarayonning (objuvoz usuli) o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatish; 3) tarmoqning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini baholash; 4) tanazzul sabablarini aniqlash.

Materiallar va tadqiqot metodlari. Tadqiqotning manbaviy asosini bir nechta guruh materiallar tashkil etadi. Birinchi guruhga I. J. Yuldashevning Samarqand qog‘ozi tarixiga bag‘ishlangan maqolasi kiradi, u O‘rta Osiyo qog‘ozchiligining umumiy texnologik va tarixiy kontekstini belgilashda tayanch sifatida xizmat qildi [1]. Ikkinchi guruhni rus tadqiqotchi va sayyohlarining bevosita kuzatuvlari tashkil etadi: A. P. Fedchenkoning Qo‘qon xonligidagi «obi juvoz» fabrikasi haqidagi yozuvlari, A. L. Kunning Qo‘qon xonligi tavsifi va G. N. Potanin orqali yetib kelgan sibir kozogi Maksimovning guvoxligi [3; 4; 10]. Uchinchi guruhga X. Bobobekovning «Qo‘qon tarixi» asari va zamonaviy tarix fanidagi maqolalar kiradi, ular xonlikdagi hunarmandchilik tarmoqlarining umumiy tizimini tahlil qilishga imkon berdi [2; 8]. Tadqiqot usuli sifatida tarixiy-qiyosiy tahlil, manbashunoslik tahlili va tizimli yondashuv qo‘llanildi: Qo‘qon qog‘ozgarligi Samarqand an’anasi bilan qiyoslangan holda, xonlik hunarmandchiligining umumiy tizimi doirasida ko‘rib chiqildi.

Natijalar. Qog‘ozgarlik xonlik hunarmandchiligi tizimida. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Qo‘qon xonligida hunarmandchilikning temirchilik, zargarlik, to‘qimachilik, kulolchilik kabi ko‘plab tarmoqlari bilan bir qatorda qog‘ozgarlik (fors. asosli terminda – qog‘ozrez, qog‘ozgar, qog‘ozsoz) ham mustaqil kasb sifatida shakllangan edi [6; 2]. XVIII asrda xonlik hududida kamida ikki yirik qog‘oz ishlab chiqarish korxonasi mavjud bo‘lgan: ulardan biri Mo‘yi Muborak darvozasi yaqinida, ikkinchisi esa Chorku qishlog‘ida joylashgan [8]. XIX asrning o‘rtalarida Toshkent va Qo‘qon fabrikalarida baravar taxminan yigirma nafar usto ishlagan; bir varaq qog‘ozning narxi bir pul (tiyin)ni tashkil etgan, bu esa mahsulotning keng omma uchun nisbatan arzon bo‘lganidan dalolat beradi [10]. Qog‘ozgar va Chorku qishloqlarida esa an’anaviy objuvoz texnologiyasi XX asr 20-yillarigacha, aniqrog‘i 1924 yilgacha saqlanib qolgan, bu holat 1931 yilda V. G. Grigorevning maxsus ekspeditsiyasi davomida hujjatli ravishda qayd etilgan [1, b. 96].

Texnologik va sifat xususiyatlari. Qo‘qon qog‘ozgarligi texnologik jihatdan Movarounnahrning umumiy qog‘oz ishlab chiqarish an’anasiga, xususan Samarqand usuliga asoslangan: xom ashyo sifatida latta, ipak va kanop tolalaridan foydalanilgan, tolalarni maydalash esa suv kuchi bilan ishlaydigan tegirmon – objuvoz yordamida amalga oshirilgan [1, b. 94]. Bu usul, Zaxiriddin Muhammad Bobur va boshqa zamondosh manbalarda ta’kidlanganidek, Movarounnahr qog‘ozini sifat jihatidan xitoy qog‘ozidan ustun qo‘ygan: mahalliy qog‘ozga ikki tomonlama yozish imkonini bergan [1, b. 94–95]. 1871 yilda Qo‘qon xonligida bo‘lgan rus tabiatshunosi A. P. Fedchenko bevosita kuzatgan «obi juvoz» fabrikasining ishlash jarayoni bu texnologiyaning amaliyotda qanday tatbiq etilganini ko‘rsatuvchi noyob guvoxlikdir [6].

Ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Qog‘oz ishlab chiqarish Qo‘qon shahrining iqtisodiy qiyofasini belgilagan tarmoqlardan biri bo‘lib, shahar aynan zargarlik bilan bir qatorda qog‘ozgarligi bilan tanilgan [6; 9]. Xonlik hunarmandchiligida, xuddi Samarqandda bo‘lganidek, ijtimoiy tabaqalanish mavjud edi: o‘z ustaxonasi, xom ashyosi va asbob-uskunasiga ega bo‘lgan yuqori tabaqa ustolar va boylar qo‘l ostida ishlovchi kunbay hunarmandlar farqlangan [8]. Qog‘oz, boshqa hunarmandchilik mahsulotlari – ipak, gilam, teri kabi tovarlar qatori Buyuk ipak yo‘li savdo tarmoqlari orqali xonlik ichkarisida va qisman uning chegarasidan tashqarida ham muomalada bo‘lgan.

Tanazzul sabablari. XIX asrning ikkinchi yarmida, Turkiston o‘lkasining Rossiya tarkibiga qo‘shilishi bilan birga, rus sanoati ishlab chiqqan arzon fabrika qog‘ozi mahalliy bozorlarni tobora egallab bordi. Natijada qadimiy objuvoz usulida ishlab chiqarilgan qo‘lbola qog‘oz sanoat maHsuloti bilan raqobatda tob bera olmay, tarmoq butunlay tanazzulga yuz tutdi [6]. Shu tariqa MovarounnaHrda asrlar davomida rivojlanib kelgan an’anaviy qog‘ozgarlik, Samarqandda bo‘lgani kabi, Qo‘qonda ham XIX asr oxirlarida amalda barham topdi [1, b. 96].

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, Qo‘qon qog‘ozgarligi Samarqand qog‘ozchiligining to‘g‘ridan-to‘g‘ri davomchisi va tarmog‘i sifatida shakllangan, ammo o‘z miqyosi va bozor yo‘nalishi bo‘yicha undan farq qilgan. Agar Samarqand qog‘ozi, I. J. Yuldashev ko‘rsatganidek, Buyuk ipak yo‘li orqali Yaqin Sharq va Yevropagacha yetib borgan transkontinental savdo predmetiga aylangan bo‘lsa [1, b. 95], Qo‘qon qog‘ozgarligi asosan mintaqaviy, ko‘proq xonlik ichkarisidagi ehtiyojni qondirishga yo‘naltirilgan edi. Shu bilan birga, Qo‘qon va uning atrofidagi qishloqlar (Qog‘ozgar, Chorku) aynan an’anaviy objuvoz texnologiyasini eng uzoq vaqt – amalda XX asr birinchi choragigacha saqlab qolgan markazlardan biriga aylandi. Bu holat tadqiqotchilarga (V.G. Grigorev ekspeditsiyasi misolida) texnologiyaning tirik, amaldagi ko‘rinishini bevosita kuzatish va hujjatlashtirish imkonini berdi, vaholanki Samarqandda bu an’ana ancha oldin barham topgan edi. Demak, Qo‘qon materiali O‘rta Osiyo qog‘oz sivilizatsiyasi tarixini rekonstruksiya qilishda alohida manbashunoslik qiymatiga ega. Shuningdek, e’tirof etish lozimki, Qo‘qon qog‘ozgarligi haqidagi bevosita yozma manbalar Samarqandga nisbatan ancha kamroq va parchalangan holatda saqlangan: asosiy ma’lumotlar ko‘proq rus sayyohlari va amaldorlarining tasodifiy guvohliklariga (Fedchenko, Kun, Maksimov)larda asoslanadi. Arxiv ma’lumotlari Qo‘qon qog‘oz ishlab chiqarish yuzasidan to‘liq ma’lumot bo‘lmasada ammo dalillashtirish uchun ayrim ma’lumotlardan foydalanildi.

Xulosa. O‘tkazilgan tahlil Qo‘qon xonligida qog‘ozgarlikning mustaqil va barqaror hunarmandchilik tarmog‘i sifatida mavjud bo‘lganini, uning texnologik

asosi Samarqand qog‘ozchiligi an’anasidan kelib chiqqanini ko‘rsatdi. Tarmoq xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida, ayniqsa Qo‘qon shahrining hunarmandchilik qiyofasini belgilashda muhim o‘rin tutgan. XIX asr oxirida rus sanoat mahsulotlari ta’sirida tanazzulga yuz tutgan bo‘lsa-da, Qo‘qon qog‘ozgarligi an’anaviy objuvoz texnologiyasini nisbatan uzoq vaqt saqlab qolgani bilan yevroosiyo qog‘oz sivilizatsiyasi tarixini o‘rganish uchun qimmatli manba hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, Qo‘qonni Movarounnahr qog‘oz sivilizatsiyasi tizimidagi mustaqil, kichik, ammo tarixiy-etnografik jihatdan alohida ahamiyatga ega bo‘lgan markaz sifatida baholash mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Юлдашев, И. Ж. Роль самаркандской бумаги в истории евразийской цивилизации // Учёные записки (Алтайская государственная академия культуры и искусств). – 2020. – № 3 (25). – С. 93–97.

2. Бобобеков, Х. Қўқон тарихи. – Тошкент: Фан, 1996. – 302 б.

3. Федченко, А. П. Оби джуаз – писчебумажная фабрика в Кокане // Туркестанский сборник.

4. Кун, А. Л. Очерк Кокандского ханства // Известия Русского географического общества. – Т. XII. – СПб., 1875. – С. 61–62.

5. Мукминова, Р. Г. К истории производства самаркандской бумаги в XVI веке // История материальной культуры Узбекистана. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1964. – Вып. 5. – С. 155–160.

6. Qo‘qon xonligi // Vikipediya – ochiq ensiklopediya [Elektron resurs]. – URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Qo%CA%BBqon_xonligi

7. Qo‘qon xonligining ichki va tashqi siyosati [Elektron resurs] // ilmiybaza.uz. – URL: https://ilmiybaza.uz/document/qoqon-xonligining-ichki-va-tashqi-siyosti/

8. Turdiyeva, M. Ichki savdo Qo‘qon xonligi iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biri (1701–1876) // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. – 2025. – Т. 5, № 2. – Б. 79–84.

9. Qo‘qon // Vikipediya – ochiq ensiklopediya [Elektron resurs]. – URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Qo%CA%BBqon

10. Потанин, Г. Показание сибирского казака Максимова о Кокандском владении // Вестник императорского Русского географического общества. – СПб., 1860. – Ч. XXVIII, кн. 3. – С. 65–75.